Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
FILOLOGIYA

TARIXIY ROMANLARDA MUNOSABAT PSIHOLOGIYASI TASVIRI

Shoira Absalomovna Umarova*
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi matbuot kotibi
✉ umarovash.8887@gmail.com

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada yozuvchi Shahodat Isaxonovaning tarixiy romanlarida o'zaro ziddiyatli munosabatlarda shaxsning psixologik holatlarining verbal va noverbal ifodalari xususida fikr yuritilgan. Antropotsentrik tilshunoslik mezon va tamoyillari asosida ana shunday murakkab jarayonlarning psixolingvistik tabiatini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, inson ruhiyati, ma'lum bir psixofiziologik holatlar yoki temperamentlarga xos verbal va noverbal belgilarni aniqlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar

munosabatlar psixologiyasi, ziddiyat, to'qnashuv, verbal, noverbal, shaxsiy munosabat, ijtimoiy munosabat.

DOI: 10.5281/zenodo.21743810

KIRISH

Tarixiy roman inson, jamiyat va davr o'rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy talqin etuvchi yetakchi epik janrlardan biri hisoblanadi. Unda tarixiy voqealar tasviri bilan bir qatorda qahramonlarning ruhiy kechinmalari, o'zaro munosabatlari va psixologik holatlari ham muhim badiiy-estetik vazifani bajaradi. Ayniqsa, ziddiyatli kommunikativ vaziyatlarda shaxsning ichki kechinmalari, hissiy holati hamda xarakter xususiyatlari dialog, monolog, muallif nutqi, shuningdek, mimika, imo-ishora va boshqa noverbal vositalar orqali namoyon bo'ladi. Shu bois tarixiy romanlarda munosabatlar psixologiyasining verbal va noverbal ifodalanish mexanizmlarini antropotsentrik hamda psixolingvistik yondashuvlar asosida tadqiq etish badiiy matnning kommunikativ-pragmatik mohiyatini ochish, personajlarning ruhiy olami va ular o'rtasidagi munosabatlar dinamikasini chuqurroq anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Shahodat Isaxonovaning tarixiy romanlari misolida ma'lum bir davrga xos voqealar silsilasida insonlarning ichki olami, ruhiy dunyosi tug'yonlari, o'y-kechinmalari, voqelik kechayotgan ijtimoiy muhitda turli toifadagi, turli qatlamdagi rang-barang personajlarning xarakter-xususiyatlarini tasvirlash tendensiyasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Nafaqat tarixiy shaxslar, balki ular atrofidagi turli tabaqa vakillarining hayot tarzi, o'y-kechinmalari, o'zaro munosabatlari, bir voqea zamirida bir necha maslakdosh yoki qarama-qarshi kuchlarning psixologik holatlari aks ettiriladi va mana shu jarayonda markaziy obrazlarning xarakter-xususiyatlari ochib beriladi.

"Chingizxon tuzog'iga tushgan malika" asarida:

1) Sulton Muhammad Xorazmshoh – Chingizxon – Turkon Xotun;
2) Turkon Xotun – Sulton Muhammad Xorazmshoh – Jaloliddin – O'zloqshoh;
3) Oychechak – Beka Sulton;

"Bibixonim" romanida:

1) Amir Temur – Xalil Sulton – Bibixonim – Shod Mulk;
2) Mironshoh Mirzo – Amir Temur – Xonzodabegim;

“Nodirai davron” romanida

1) Amir Olimxon – Xonoyim – Amir Umarxon;

2) Amir Umarxon – Nodirabegim – Xonposhshaxon;

3) Nodirabegim – Amir Nasrullo;

4) Nodirabegim – Xonposhshaxon – Muhammadalixon;

“Gavharshodbegim”da

1) Gavharshodbegim – Jo‘kiy Mirzo;

2) Gavharshodbegim – Mirzo Ulug‘bek – Abdullatif Mirzo;

3) Gavharshodbegim – Abusaid Mirzo kabi ziddiyatlar, to‘qnashuvlar fonida shaxs va shaxs, shaxs va jamiyat, shaxs va saltanat kabi kuchli ruhiy-psixologik, ijtimoiy-psixologik jarayonlar kitobxon diqqatini tortishi bilan birga, inson omilining teran tahlili, jamiyat hayotida va tarixiy jarayonlarda shaxslarning o‘rni va ahamiyati kabi masalalarning badiiy talqini o‘z ifodasini topgan.

Muloqot jarayonida boshqa shaxsning xatti-harakatlari, shaxsiy xususiyatlarini idrok etishda baholovchi taassurot sifatida ijtimoiy idrok effektlari yuzaga keladi.

– Bul arzimas hadya tanishuvimizdin xotira bo‘lsin... – dedi Husaynbek taqinchoqlarni Saroymulkxonimga uzatarkan.

Saroymulkxonim duvva qizardi. U beixtiyor, yalt etib Temurbekka qararkan, ohistagina ”tashakkur” dedi. Lekin taqinchoqlarni olmadi. Qo‘li havoda qolgan Husaynbek izza bo‘lganidan sarg‘ish yuzlariga qon tepib, burnini asabiy tortganicha, savol nazari bilan Xonlar begim tomon o‘girildi.

– Hadyaga shoshilmang, bek, – dedi Xonlar begim qizining bu jur’ati o‘rtalaridagi sovuqchilikni yanayam oshirishini anglab turgan bo‘lsa ham, xonzoda hadyaga qanday munosabat bildirarkan degan ma’noda besabrlanayotgan alag‘da ko‘ngli birdan taskin topdi va Husaynbekka ham, Temurbekka ham uzrxohlik bilan, qizining bu ishidan xijolat chekkanday, qisinib, qimtinib, ko‘z tashlab oldi. – Lekin eshiklarimiz sizlar uchun hamisha ochiq! Tuhfaning esa mavridi qochmas. Siz xonzoda birlan yana suhbatlashing, chunki siz uchun-da, xonzoda uchun-da yo‘ldosh tanlamoq ko‘p mas’uliyatlidur. Sizlar elning ustindag‘i ulug‘sizlar!..

– Inshoolloh, men adashmasmen, hazrati oliyalari, – dedi Husaynbek jo‘rasi oldida rad javobi eshitishdan qo‘rqib, taqinchoqlarni shosha-pisha endi Xonlar begim tomon surarkan.

– Saroymulkxonim ismig‘a monand ulug‘ saroylarning malikasi bo‘lmog‘iga imonim komil!

Xonlar begim o‘tkir ko‘zlarini Husaynbekka tikkanicha, ***”astag‘firulloh, lekin sen birlan ermas”, dedi ichi yonib.*** *Keyin qizining fikrini bilmoq maqsadida Saroymulkxonimga qaradi va* ***qizining nigohlarida iztirobdan boshqa narsani ko‘rmadi.*** *Xonlar begim o‘rtada paydo bo‘lgan jarlikni chuqurlashtirmaslik uchun mehmonlarni dasturxonga taklif etdi.*

Avzoyi buzilgan Husaynbek xayr-ma’zurni nasiya qilib, chiqib ketmoqqa qasd etgan bo‘lsa-da, xonzodadan quruq qolishini o‘ylab, o‘zini bosdi. Ko‘nglidan kechayotgan fikrlarni bildirmaslikka tirishib, tushlikka rozi bo‘ldi. (Sh.Isaxonova, “Bibixonim”)

Gap shundaki, Husaynbek Saroymulkxonimning otasi Qozonxonni o‘ldirgan Amir Qazag‘anning o‘g‘li edi. Shunday noqulay ijtimoiy munosabat holati yuzaga kelgan ediki, bir tomondan otasining qotillari, ikkinchi tomondan, qizning oilasidan ustunlik jihati ularga nisbatan hukmdorlik mavqei jihatidan o‘sha davr ijtimoiy qoidalarga ko‘ra bu talabni rad etish mumkin bo‘lmagan hol edi. Shuning uchun ona-bola ko‘ngil mayli bilan ijtimoiy majburiyat orasidagi o‘tkir ziddiyat sababli qiyin vaziyatga tushib qoladilar. Xonlar begimning ichida kechgan *”astag‘firulloh, lekin sen birlan ermas”* jumlasi ana shu ruhiy iztirobning ifodasi edi.

Ikkinchi tomondan, Husaynbek ham bu noqulaylikni his qilsa-da, tarbiyali, zukko va go‘zal Saroymulkxonimdan voz kechishni istamagani uchun murosa yo‘lini tutadi: *Avzoyi buzilgan Husaynbek xayr-ma’zurni nasiya qilib, chiqib ketmoqqa qasd etgan bo‘lsa-da,* ***xonzodadan quruq qolishini o‘ylab, o‘zini bosdi.***

Aynan, munosabatlar jarayonida shaxslarning ijtimoiy xatti-harakatlari ularning real maqsadlari va his-tuyg‘ularining belgilari to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Psixologlarning e’tirof etishlaricha, S.L.Rubinshteyn aytganidek, ”biz insonni tashqi xulq-atvoriga qarab uni o‘qiymiz”. Bundan, insonning xatti-harakatlari uni qanday shaxs ekanligidan dalolat berishini anglashimiz mumkin.[1]

[1]Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya: darslik. Toshkent, 2009. – B. 86

Bibixonim boshdanoq Shod Mulkning andishasiz, ayyor ekanligini anglagan, «Shahzodani bu balodin qutqazmog‘imiz kerak», deb ogohlantirgan Sohibqiron tarafida turgan bo‘lsa-da, Xalil Sultonning ohu zoriga dosh berolmagan, unga rahm-shafqat ko‘rsatishdan o‘zini tiyolmagan va o‘limga buyurilgan ma’shuqasini qutqarib qolgan edi. Ana shu nuqtada qaror berishda Shod Mulkning xatti-harakatlari uning qanday shaxs ekanligidan darak berib tursa-da, Bibixonimning ruhiy kechinmalari ustun kelganligini uning Sohibqiron bilan xayolan kechgan suhbati orqali anglaymiz:

“Siz xato qildingiz, bibim...” Bibixonim quloqlari ostida sohibqironning shivirlagan nafasini his etganday bo‘ldi.

”Ha, men xato qildim, ulug‘ Amirim! Nega siz, mening so‘zlarimni tingladingiz?! Nega bul ilonni o‘zing‘iz yanchmading‘iz? Men, tirnoqqa zor bir bandai ojizing‘iz, bul yuzi qaro juvonning ”homilam bor” deg‘an yolg‘onlarig‘a, qasamlarig‘a ishonibmen. Uning vujudidag‘i avloding‘iz mening aybim birlan zavol topmasin deb andesha qilibmen. Amirim, armonli farzandsizlig‘im pand bermish... Tushlarimdag‘ina allalar kuylab tebratg‘anim go‘daklarimg‘a mengzabmen uni!” .(Sh.Isaxonova, “Bibixonim”)

Tarixiy romanlarda munosabatlar psixologiyasining badiiy talqini tahlili shuni ko‘rsatadiki, qahramonlar o‘rtasidagi shaxsiy va ijtimoiy munosabatlar dinamik jarayon bo‘lib, ularning ruhiy dunyosi va dunyoqarashini ochib beruvchi asosiy vosita vazifasini o‘taydi. Asarlarda ziddiyat va to‘qnashuvlar faqat tashqi syujet chizig‘ini rivojlantirib qolmay, balki personajlarning ichki kechinmalari, iroda kuchi va ma’naviy-axloqiy tamoyillarini yuzaga chiqaruvchi psixologik katalizator sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Tarixiy romanlarda munosabatlar psixologiyasi tasviri badiiy matnning mazmuniy va estetik yaxlitligini ta’minlovchi muhim unsurlardan biridir. Muallif qahramonlarning ichki kechinmalari, emotsional holatlari va o‘zaro munosabatlarini verbal hamda noverbal vositalar orqali ifodalash orqali ularning ruhiy olamini chuqur ochib beradi. Bunday tasvir usullari nafaqat personaj xarakterini yoritishga, balki tarixiy davrning ijtimoiy-madaniy muhitini, qadriyatlari va insonlararo munosabatlar tizimini ham aks ettirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan tarixiy romanlarda munosabatlar psixologiyasini antropotsentrik, psixolingvistik va pragmatik yondashuvlar asosida o‘rganish badiiy matnning kommunikativ xususiyatlarini hamda inson omilining til orqali namoyon bo‘lish mexanizmlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kenjayeva P. Hozirgi o‘zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari. filol.fanlari nomz. diss... Toshkent, 2008.
2. Tulabayeva R.S. Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm: filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtorefer. T., 2019. – 53 b.
3. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya: darslik. Toshkent, 2009.
4. Xudayberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: filol. fanlari dokt. diss... avtoref. T.: 2015. – 102 b.